

**O'QUV-TARBIYA JARAYONINI LOYIHALASHTIRISHGA TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO'NALISHLARI VA UNING IJTIMOY AHAMIYATI
10.53885/edinres.2022.43.16.119**

Ibragimov Alisher Karomatovich

Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası dotsenti. Buxoro davlatuniversiteti

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash, ularni ijodiy faollikka undovchi shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv muhitini to'g'ri tashkil eta olish hamda o'quvchilarning iqtidorlari, qiziqishlari, layoqatlarini aniq hisobga olgan holda mazkur jarayonni loyihalashtirish masalalari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar. kasbiy-pedagogik faoliyat, ijodiy faoliyat, didaktik shart-sharoitlar, ta'lim jarayonini loyihalashtirish.

Bo'lajak mutaxassislarning faoliyati tarkibida yo'naltiruvchi quvvat sifatida uning mayllari namoyon bo'ladi. Har qanday faoliyatning samarali kechishi va sifatli natijalar berishi, yorqin, kuchli, chuqur kasbiy mayllar mavjud bo'lgandagina faol harakatlanish istagini tug'diradi. Bo'lajak mutaxassis o'z quvvatlarini to'liq safarbar qilgan holda qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishi, qulay bo'lmagan sharoitlarda o'zi uchun rivojlanish imkoniyatini yaratishi, o'z maqsadi sari qat'iy intilishi mumkin. Bularning barchasi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-biluv hamda kasbiy-pedagogik faoliyatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Agar bo'lajak o'qituvchilarda bilish qiziqishlari yetarlicha rivojlangan bo'lsa, mazkur jarayon yanada samarali kechadi. Pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy munosabat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ehtiyoji, o'z ijodiy quvvatlari, ta'lim jarayonini loyihalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga intilish, o'zini o'qituvchi sifatida namoyon qilish imkoniyatini beradi. Bu o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish omili sifatida xizmat qiladi. Bu quyidagilarga bog'liq:

- bo'lajak o'qituvchilarga kasbiy rivojlanish imkonini beradigan qulay pedagogik-psixologik muhitning mavjudligi;
- ishchan hamkorlik muhitini vujudga keltirish uchun birgalikda ishlaydigan ijodiy guruhni shakllantirilganligi;
- pedagogik hamkorlikning rivojlantirilishi;
- ijodiy innovatsion muhitni vujudga keltirilganligi;
- pedagogik amaliyot jarayonida ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagogik jamoa tomonidan yangi g'oyalar va pedagogik loyihalarning qo'llab quvvatlanishi;
- innovatsion faoliyat ichki va tashqi bosimlardan xoliligi va mustaqilligining ta'minlanganligi;
- bo'lajak mutaxassislarning iqtidorlari va layoqatlaridan kelib chiqqan holda ularning to'g'ri tanlanganligi va maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirilganligi;
- bo'lajak mutaxassislarni pedagogik ijodkorlikka muntazam yo'naltirishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlarning ishlab chiqilganligi va tadbir etilganligi kabilar.

Oliy ta'lim muassasasida bunday muhitni vujudga keltirish talabalarni o'z-o'zlarini ijodiy jihatdan rivojlantirishlari uchun muhim, yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak o'qituvchilar shuni yaxshi bilishlari kerakki, o'quvchilarni ijodiy faollikka undovchi muhim omil – ularni ijodiy faollikka undovchi shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv muhitini to'g'ri tashkil eta olish hamda o'quvchilarning iqtidorlari, qiziqishlari, layoqatlarini aniq hisobga olgan holda mazkur jarayonni loyihalashtirishga bog'liq [1,4].

Uchinchi muhim shart – bo'lajak mutaxassislarni pedagogik yo'naltirishdan iborat bo'lib, ta'lim jarayoni sub'yektlari orasida turlicha yo'naltiruvchi vositalarni maqsadga muvofiq tarzda qo'llashni anglatadi. Bunday yo'naltiruvchi imkoniyatlar sirasiga o'quv-biluv jarayonida turli vaziyatlarni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishni kiritish mumkin.

Insonning har qanday faoliyati, mazkur faoliyatning maqsadi, usullari, natijalari uning ongida oldindan loyihalashtiriladi. Ushbu loyihalar mazkur faoliyatni yo'naltiradi, unga turtki beradi va muvofiqlashtiradi. Qo'yilgan maqsadga erishish va kafolatlangan natija olish uchun ta'lim oluvchilar ichki qoniqish va muvaffaqiyatdan quvonish hissini tuyadilar. O'zining istiqbolini ko'ra olish, muvaffaqiyatdan quvonish hissini tuyish, bo'lajak mutaxassislarda ijobiy kechinmalar uyg'otib ularning ichki faolliklari va ijodiy taraqqiyotlariga turtki bo'ladi [2,3].

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash – uzluksiz pedagogik ta'lim olishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, didaktik shart-sharoitlarga bevosita bog'liqdir. Qulay didaktik shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning navbatdagi to'rtinchi sharti bo'lib, o'quv jarayonining muhim omili sifatida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-biluv faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur didaktik

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

shart-sharoitlar bo'lajak mutaxassislarni ijodkor shaxs sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgandir. Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ijodiy rivojlanishlarini tashkil etishga yo'naltirilgan yondashuvlarning tahlili didaktik shart-sharoitlarni umumlashtirish imkoniyatini berdi. Shu maqsadda mazkur didaktik shart-sharoitlarni quyidagi guruhlarga ajratish imkoniyati tug'ildi:

– Tashkiliy shart-sharoitlar, mazkur shart-sharoitlar o'quv jarayonini umumiy tarzda tashkil etishni ta'minlab predmetlararo integratsiya prinsipiga tayanilgan holda amalga oshiriladi.

– Mazmun bilan bog'liq shart-sharoitlar, bu umumiy kompleks o'quv muammolarini ajratishga yo'naltirilgan bo'lib, har bir sikldagi o'quv fanlari orasida umumiy xarakterdagi predmetlarga xos g'oyalari, nazariyalar, qonun-qoidalar, tushunchalar, metodlar, usullar o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-1533-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 25-sonli Qarori.

3. Ne'matovich K.S.Abdueva _ Sitorabonu Savriddin qizi , Fatullayeva Muazzam Azimovna , Qurbonov Shuhrat Qo'ldoshevich . Jismoniy tarbiya va sport darslarida innovatsion atamalardan foydalanish va ularning ijtimoiy va tarbiyaviy xususiyatlari // Tanqidiy sharhlar jurnali. doi . – T . 10. – S . 470-471 .

4. Abdueva SSQ 14-15 yoshli gandbolchilarning sakrashda tezligi va kuchini aniqlash //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T . 10. – №. 11. – S . 1212-1220.

5. Abdueva S.S., Xurbonov S., Sobirova N. 11-12 yoshli gandbolchi qizlarning jismoniy ko'rsatkichlari va texnikasi evolyutsiyasi //Fan, muhandislik va texnologiyada ilg'or tadqiqotlar xalqaro jurnali (IJARSET). – 2019 yil.

6. Abdueva SS Bolalarning gandbol sportiga qiziqishini oshiradigan tadbirlar // Innovatsionnoerazvitienauki I obrozovaniemejdunarodnayanauchno-prakticheskayakonferensiya . – 2020 yil.

7. Abdueva S.S. Barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning pedagogik ahamiyati //Olamga integratsiya va fanlar aloqasi| Integratsiya v mir i svyaz nauk | Dunyoya qurish va elmlarning aloqa ISBN. – S . 978-9952.

8. Abdueva S. XVI-XVIII ASRLARDA O'RTA OSIYODA Jismoniy madaniyatni o'rganish dolzarb masala sifatida // TsENTR . NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 8. – №. 8.

9. Abdueva S. Universitet talabalarining gandbol jamoalari mashg'ulotlarini rejalashtirishda temperament turlari bo'yicha sportchilarning funksional holatini hisobga olish // TsENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 8. – №. 8.

10. Abdueva S. Yosh gandbolchilarni tayyorlashning psixologik jihatlari // TsENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 8. – №. 8.

11. Abdueva S. SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASH XUSUSIYATLARI // TsENTR . NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 8. – №. 8. Abdueva S. SHAXS JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TIZIMLI YONDORISHA // TsENTR . NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 8. – №. 8.

12. Abdueva S. GANDBOLCHILARDA HUYUM VA HIMOYA JAVOB TEZLIKINING YOSH BOYICHA DINAMIKASI // TsENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 7. – №. 7.

13. Abdueva S. SHAXS JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TIZIMLI YONDORISHA // TsENTR . NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 8. – №. 8.

14. Abdueva S. SPETSIFIKA DISTANTSIONNOGO OBUCHENIA VYSSHEM OBRAZOVANII //TsENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 7. – №. 7.

15. Abdueva S . Jismoniy madaniyat shaxs inn o v a tsi o n m e t o dl a rni qo ' ll a shning psi xo l o gik jih a t l a ri //TsENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 3. – №. 3.

16. Abdueva S . Xotin - qizlarning milliy madaniyati va hozirgi davr jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish tasiri //TsENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz). – 2021. – T . 3. – №. 3.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

17. Abduyeva S . Jismoniy madaniyatning ijtimoiy funksiyasi //TsENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz) . – 2021. – T. 8. – №. 8.
18. Abduyeva S. YUKORI MALAKALI 19-21 YOSHLI GANDBOLCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONLARIDA DAVRANLAR ARALIGI PSIXOLOGIK AHAMIYATI // TsENTR . NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu . uz) . – 2021. – T . 8. – №. 8.
19. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 242-249.
20. Karomatovich I. A., Shodiyevich T. M. THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF STUDENTS'SPIRITUAL AND MORAL VALUES THROUGH MOVEMENT GAMES IN SPORTS LESSONS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 310-320.
21. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – C. 333-338.
22. Ибрагимов А. К. Основа физкультурного образования школьников–зна-ния по физической культуре //Рекомендовано к изданию Советом по качеству УралГУФК Протокол. – 2018. – №. 8. – С. 128.
23. Ibragimov S. E. RESEARCH PARK. – 2021.
24. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – C. 333-338.
25. Karomatovich I. A., Utkirjonovich E. F. CHARACTERISTICS OF TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING METHODOLOGY OF BOXERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 05. – C. 27-40.
26. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – C. 486-492.
27. Karomatovich I. A., Shokhrub U. Dynamics of jumping development of volleyballers in different ages //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
28. Ibragimov A. K., Muxiddinovich L. A. INDIVIDUALIZATION OF PSYCHOLOGICAL TRAINING OF QUALIFIED HANDBALL PLAYERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 234-241.
29. A.K.Ibragimov, F.I.Mo‘minov. Methodology of optimization of training for young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
30. Ixomovich M. F. METHODOLOGICAL BASIS FOR THE FORMATION OF FOOTBALL TRAINING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 355-363.
31. Ixomovich M. F. FEATURES OF THE EDUCATIONAL AND TRAINING PROCESS OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS AT THE STAGE OF INITIAL TRAINING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 1314-1320.
32. Muminov F. PEDAGOGICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS.
33. Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 11. – C. 99-103.
34. Azimovna F. M. Jismoniy tarbiya va sport mashg 'ulotlari jarayonida aqliy tarbiya va uning ahamiyati. Integration into the world and connection of sciences. – 2020.